

O‘ZBEKISTON — YEVIROPA ITTIFOQI: IKKI MINTAQANING O‘ZARO BOG‘LIQLIGINI KUCHAYTIRISH ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-aprel kuni “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan suhbatlashdi.



Suhbat chog‘ida O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi hamda 4-aprel kuni bo‘lib o‘tadigan mintaqalararo sammit va iqlim forumiga oid masalalar ko‘rib chiqildi.

So‘ngra davlatimiz rahbari Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni, eng

avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Turli darajalardagi faol muloqotlar va sarmahsul almashinuvlar, amaliy hamkorlikning institutsional mexanizmlari doirasida samarali ishlar olib borilayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolaniishga tayyorlanmoqda.

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash

hajmi barqaror ortib bormoqda. Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi investitsiya loyihalari portfeli 30 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda. Mamlakatimiz Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yirik benefitsiari hisoblanadi, Toshkent shahrida Yevropa investitsiya bankining mintaqaviy vakolatxonasi ochilmoqda.

Yevropa Ittifoqining bosh institutlari rahbarlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan

iqtisodiy islohotlar dasturini, shuningdek, Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va sheriklikni mustahkamlash borasidagi siyosatni yuksak baholadilar va qat‘iy qo‘llab-quvvatlashlarini bildirdilar.

Muzokaralarda asosiy e‘tibor innovatsiyalar, “yashil” energetika, tog‘-kon tarmog‘i, qishloq xo‘jaligi, transport, logistika, raqamlashtirish va boshqa yo‘nalishlarda qo‘shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga qaratildi.

Turizm, madaniyat, fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi faol almashinuvlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Bo‘ljak “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formatidagi birinchi oliy darajadagi sammit kun tartibidagi masalalar hamda Yevropaning “Global darvoza” strategiyasi doirasida ikki mintaqaning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlarini, jumladan, Afg‘onistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen huzurida mamlakatimizda Yevropa investitsiya bankining mintaqaviy ofisini ta‘sis etish to‘g‘risida bitim imzolandi.

1958-yilda tashkil etilgan Yevropa investitsiya banki Yevropa Ittifoqining yetakchi moliyaviy institutidir.

Ta‘kidlash joiz, ofisning Toshkent shahrida ochilishi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, O‘zbekistonda va umuman Markaziy Osiyoda “yashil”

iqtisodiyot, innovatsion sanoat va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish imkonini beradi.

Oliy darajadagi O‘zbekiston — Yevropa muzokaralari yakunida birgalikda daraxt ekish marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen Samarqand shahridagi Kongress markazi xiyobonida ikki tup eman ekdilar.

Ko‘chat ekish marosimi O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida do‘stlik, ko‘p qirrali hamkorlik va sheriklik munosabatlari tobora mustahkamlanib borayotganining yana bir ramzi bo‘ldi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari hamrohligida Antoniu Koshta va Ursula fon der Lyayen Samarqand xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik majmuasida bo‘ldilar.

Mehmonlarga xalqimizning betakror badiiy, hunarmandlik va musiqiy madaniyati namoyish etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand sammitida ishtirok etish uchun yurtimizga kelgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) prezidenti Odil Reno-Basso bilan ham uchrashdi.

Muloqotda mamlakatimizning ushbu nufuzli xalqaro moliyaviy institut bilan keng ko‘lamli hamkorligini yanada rivojlantirishning amaliy jihatlarini atroflicha ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston va YTTB o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Ustuvor tarmoqlardagi qo‘shma loyihalar portfeli

barqaror kengayib bormoqda. Bankning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan jami investitsiyalari 5 milliard yevrodan oshdi, jumladan, o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra qariyb 1 milliard yevroni tashkil etdi. Moliyaviy ko‘makning asosiy hajmi xususiy sektorga to‘g‘ri kelmoqda.

Mamlakatimiz bo‘yicha o‘rta muddatli Sheriklik strategiyasi samarali amalga oshirilmoqda. YTTB ekspertlari ko‘magida bank sohasini transformatsiya qilish va biznes uchun imkoniyatlarni kengaytirish choralari ko‘rilmoqda.

Uchrashuvda loyihalarning ijrosi sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish bo‘yicha birgalikdagi ishlar o‘z natijasini berayotgani qayd etildi. Jarayonlarni maqbullashtirish va loyihalarni tayyorlashni tezlashtirish muhimligi ta‘kidlandi.

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, shu jumladan, ta‘lim, suv ta‘minoti, maishiy chiqindilarni qayta ishlash kabi muhim yo‘nalishlarda kengaytirish masalalari diqqat markazida bo‘ldi.

“Yashil iqtisodiyot”, uglerod chiqindilarini kamaytirish, raqamlashtirish va sun‘iy intellekt, ipoteka bozori, transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish va boshqa sohalardagi dastur va loyihalar hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Joriy yil iyun oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish yuzasidan ham fikr almashildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
G‘olib HASANOV,
O‘ZA muxbirlari

OLII DARAJADAGI UCHRASHUVLARDA IKKI VA KO‘P TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-aprel kuni “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitida ishtirok etish uchun Samarqandga kelgan Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Turkmaniston Prezidenti davlatimiz rahbariga Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning samimiy salomini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra 1,1 milliard dollardan oshgan tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari barqaror o‘tib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi sohalarida kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Birgalikda “Shovot — Toshovuz” chegaraldagi savdo zonasi tashkil etilmoqda. Faol hududlararo muloqotlar va madaniy-gumanitar almashinuv doirasidagi tadbirlar muntazam o‘tkazilmoqda.

Bo‘ljak oliy darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlar va ko‘p tomonlama tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish, shuningdek, keng qamrovli hamkorlik bo‘yicha qo‘shma loyihalarni ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston va Tojikiston yetakchilari muloqotida joriy yil 31-mart kuni Xo‘jand shahrida o‘tgan oliy darajadagi uch tomonlama uchrashuvning tarixiy natijalari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Chegara masalalarining to‘liq tartibga solinishi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda yangi sahifa ochishi ta‘kidlandi.

O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Shu oyda bo‘lib o‘tadigan Hukumatlararo komissiya yig‘ilishida tovar ayirboshlashni ko‘paytirish va kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimligi qayd etildi.

Yetakchilar mintaqaviy kun tartibidagi masalalarni, shuningdek, ikki va ko‘p tomonlama tadbirlarga tayyorgarlikni muhokama qildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ham uchrashuv avvalida Xo‘jand shahrida davlat rahbarlarining uch tomonlama uchrashuvi samarali bo‘lgani hamda davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risida tarixiy shartnoma imzolanganini alohida mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish masalalari, xususan, sanoat, transport, energetika

va infratuzilma sohalarida muhim kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish choralari ko‘rib chiqildi.

Davlat rahbarlari faol hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish zarurligini ta‘kidladilar.

Bo‘ljak tadbirlar rejasi va mintaqaviy hamkorlikning boshqa dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston yetakchilari uchrashuvda strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini ikki davlat rahbarlarining yaqinda Olmaota shahrida bo‘lib o‘tgan norasmiy uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni hisobga olgan holda yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat hukumatlari tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, iqtisodiy loyihalar va gumanitar dasturlarni, shu jumladan, hududlar darajasida ilgari surish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko‘rish muhimligi ta‘kidlandi.

Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini ishga tushirish jarayonini tezlashtirish to‘g‘risida kelishib olindi.

Shuningdek, mintaqaviy kun tartibi yuzasidan fikr almashildi, oliy darajadagi tadbirlar jadvali ko‘rib chiqildi.

O‘ZA



DUNYONI BIR NUQTAGA BIRLASHTIRAYOTGAN O‘ZBEKISTON

Bugun O‘zbekiston dunyoni bir nuqtada birlashtirmoqda. Bu birlashuvning azaliy va tarixiy tomlari bor. O‘z davrida buyuk Sohobqiron Amir Temur saltanatining yuragi bo‘lgan Samarqandga butun dunyo intilgan, talpingan. Najot, hayot, ma‘rifat va madaniyat shu yerdan jahonga tarqalgan edi.

Olamni hayratlantirgan hamjihatlik

Ana shu tarixiy ildizlardan kuch olgan O‘zbekiston dunyo bilan bo‘ylashmoqda. Bilasizmi, O‘zbekiston dastlab yon qo‘shnilarga quchoq ochdi, o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Gapni bitta qildi. Azaliy do‘stlik, ya‘ni Markaziy Osiyo bir butun, yaxlit makonga aylandi.

Davomi 3-betda

IAHON PARLAMENTARIZMI TARIXIDAGI MUHIM BOSQICH

Shu kunlarda jahon hamjamiyati nigohi Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan O‘zbekistonga qaratilgan. 5-9-aprel kunlari Toshkent nufuzli xalqaro tadbir — Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasiga mezbonlik qiladi.

Dunyo e‘tiboridagi bu voqea nafaqat mamlakat va mintaq, balki butun dunyo parlamentlari hamjamiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Anjumanda dunyoning 181 mamlakati, 15 kuzatuvchi davlat hamda 25 dan ziyod xalqaro va parlamentlararo tashkilotdan 2 mingga yaqin delegat ishtirok etishi kutilaypti.

Davomi 3-betda

Shu kunlarda xalqaro hamjamiyat nigohi yana yurtimizga qadalgan. Yangi O‘zbekiston bir haftalik qisqa muddatda uchta yirik xalqaro anjumanga mezbonlik qilmoqda.

Samarqandda davom etayotgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti Markaziy Osiyo davlatlari va YI institutlari rahbarlarini ko‘hna kentda jamladi. “Kelajakka sarmoya kiritish” shiori ostida

o‘tkazilayotgan tarixiy muloqotda mintaqalarimiz o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinoqda.

Sammit yaqin-yaqingacha Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama munosabatda bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlarining ayni paytda yaxlit mintqa sifatida ushbu tuzilma bilan hamkorligini rivojlantirish, unda erishilishi

kutilayotgan kelishuvlar har ikki mintaqada barqarorlikni ta’minlash, aholi farovonligini oshirishga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Bugun, 4-aprel kuni sammitning asosiy tadbirlari bo‘lib o‘tadi. Quyida bir guruh ijro hokimiyati mas’ullari, jamoatchilik faollarning “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitiga doir fikr-mulohazalari bilan tanishishingiz mumkin.

SAMARQAND — TAMADDUNLAR TIMSOLI

Bashariyat tamadduni uchun xizmat qilgan barcha ilmiy manbalar, jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Kosh-g‘ariy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar asarlarida Samarqand shahri iqtisodiy, ijtimoiy, hamdo‘stlik, madaniy va adabiy aloqalar markazi timsoli bo‘lgan. Ko‘hna Samarqand katta tarixga ega, o‘z bag‘riga ana shu tarixni bunyod etgan qanchadan-qancha ulug‘ zotlarni olgan. Sivilizatsiya tarixida fenomen shaxslarning kasbini kamolga yetkazgan.

Temuriylar, xususan, Mirzo Ulug‘bek madrasalari tarixida ham ilm-fanning ko‘plab sohalari rivoji, ixtirolari aynan Madrasai oliyada dunyo yuzini ko‘rgan. Qolaversa, mashhur Xoja Ahror valiy ham temuriylar tarixi rahnamalaridan biri sifatida aynan shu shahar siymolaridan biri o‘laroq butun Movaraunnahr va Xuroson rivoji uchun homiylik qilgan. Nazarimizda, shu zamondan beri Samarqand madrasa, ta’lim, taraqqiyot homiyi bo‘lib kelmoqda.

Jahon adabiyotshunosligi taraqqiyotining o‘zanlaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiy hayoti va ijodida ham Samarqandning o‘rmi beqiyos. Samarqand shoirning hayoti, shuuri, maqsadlari va davlat arbobi sifatidagi faoliyatida o‘chmas iz qoldirdi. Alisher Navoiy qalam sohibi o‘laroq nazmi bilan bashariyatga so‘z qudratini ko‘rsatgan bo‘lsa, davlat arbobi sifatida iqtisodiy-ijtimoiy sohada ko‘plab bunyodkorlik ishlarini bajargan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy va asarlari ilm-fanning barcha sohasida tadqiqot manbai bo‘lib kelayotgandir.

Davlatimiz rahbari “Euronews”ga bergan intervyusida alohida qayd etib o‘tganidek, “Tarixan shakllangan

tushunchaga ko‘ra, Samarqanddan turib qaralganda, dunyo tarqoq emas, balki yaxlit va bo‘linmas bo‘lib ko‘rinadi. “Samarqand ruhi” degan noyob fenomenning mazmuni ham asli shunda mujassam bo‘lib, u xalqaro hamkorlikning prinsipial jihatdan yangi formatini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda”.

Prezidentimiz 2022-yili ta’lim bo‘yicha Yevropaning ilg‘or metodikalarini joriy etish loyihasini amalga oshirish, qo‘shma fundamental va amaliy tadqiqotlarni o‘tkazishni tashkil etish ustuvor maqsad-vazifalardan biri ekanini qayd etgan edi.

Bugun Samarqand davlat universite-tida olib borilayotgan fundamental va amaliy loyihalar ham ana shu istiqbolli rejaralar sarmoyasidir. Chunonchi, “Temuriylar davrida yaratilgan “Xamsa”larning komparativistik tadqiqi va ilmiy, ommabop nashrlari” mavzusidagi muallifligimizdagi loyi-hamiz ham nafaqat O‘zbekiston navoiyshunosligi, balki jahon ada-biyotshunosligi taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan istiqbolli hamkorlikka yo‘l ochishiga umid bag‘ishlaydi.

Demak, bugun yangi O‘zbekistonning jahon tamaddunidagi o‘rmi Uchinchi Renessans poydevorining timsoli sifatida bo‘y ko‘rsatayotgani va bunga aviylolar, buyuklar qadamjosi bo‘lgan Samarqand mezbonlik qilayotgani, albatta, kechaning tajribasi, bugunning harakati, ertaning saodati sifatida bizga katta ishonch beradi.

Muslihiddin MUHIDDINOV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, filologiya fanlari doktori, professor

“YASHIL STRATEGIK YO‘LAK” Energetika sohasi taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi

Ayni paytda Samarqandda davom etayotgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti katta tarixiy voqeadir. Ushbu sammit ikki mintaq o‘rtasidagi turli sohalar, xususan, energetika tarmog‘idagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘taradi.

Davlatimiz rahbari nufuzli sammit oldidan “Euronews”ga bergan intervyusida ham uning salmog‘i, tarixiy ahamiyatini ochib berdi. Ayniqsa, intervyuda Markaziy Osiyo davlatlarining energetika sohasidagi yuqori salohiyati hamda Yevropa Ittifoqi bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshirilishi kutilayotgan istiqbolli, keng qamrovli loyihalarga to‘xtalib o‘tdi.

Shulardan biri Kaspiy va Qora dengiz orqali Yevropaga “yashil strategik yo‘lak” barpo etish loyihasidir. Bunday katta loyihalarni amalga oshirish uchun bugun mintaqada zarur shart-sharoit hozirlandi. Buning uchun, avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro hamkorlikni mustahkamladi. O‘zbekiston hozir mintaqadagi barcha davlat bilan elektr energiyasini import-eksport qilish bo‘yicha manfaatli kelishuvlarga ega. Ushbu aloqalar yil sayin kuchayib bormoqda.

Albatta, bu davlatimiz rahbarining oxirgi yillardagi tashabbuslari, qo‘shni davlatlar bilan do‘stlik, ishonchli hamkorlik munosabatlarini tiklashi natijasida amalga oshirildi. O‘n yillar oldin bu loyihalarni amalga oshirish tugul, hatto muhokama qilish ham imkonsiz edi.

Bugun biz nafaqat energetika savdosi, balki yirik investitsiya loyihalarini birga amalga oshirishni muhokama qilyapmiz. Natijada soha bo‘yicha mintaqada o‘zaro tenglik, manfaatli hamkorlikka asoslangan do‘stlik munosabatlari shakllandi.

Avvallari Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki dasturlariga ko‘ra, mintaqadagi loyihalarga investitsiya kiritilgan bo‘lsa, endi Markaziy Osiyoda ishlab chiqariladigan “yashil” energiyani Yevropa Ittifoqi hududiga yetkazish bo‘yicha hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilmoqda. “Yashil strategik yo‘lak” shu maqsadda amalga oshirilayotgan loyihalardan biridir.

Mazkur loyiha o‘tgan yili Bokudagi xalqaro sammitda imzolangan kelishuv asosida amalga oshirilmogda. Unga ko‘ra, Kaspiy va Qora dengiz ostidan kabel tortish orqali “yashil strategik yo‘lak” barpo etilib, Markaziy Osiyodan Yevropaga “yashil” energiya eksport qilinishi ko‘zda tutilgan. Ayni paytda loyihani hayotga tatbiq etish borasida tizimli ishlar qilinmogda.

Umid qilamizki, sammit doirasida istiqbolli loyihalarni yanada jadallashtirish bo‘yicha amaliy qadamlar qo‘yiladi. Soha taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi shartnoma va kelishuvlarga erishiladi.

Jo‘rabek MIRZAMAHMUDOV,
energetika vaziri

YEVROPA TOMON ISHONCHLI QADAM

Oxirgi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro savdo-sotiq, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari jadal rivojlanib bormogda. Bu esa mintaqaning transport-kommunikatsiya kompleksini yanada rivojlantirish zaruratini yaratdi.

Jahonda yuz berayotgan geosiyosiy vaziyatning shiddat bilan o‘zgarishi transport infratuzilmasini takomillashtirish hamda yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, yangi va barqaror transport yo‘laklarini rivojlantirish bo‘yicha kompleks va muvofiqlashtirilgan ishlarni talab qilmoqda.

So‘nggi yillarda Qizil dengiz va Sharqiy Yevropadagi geosiyosiy keskinlik kuchayishi Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtasida xavfsiz, barqaror va har tomonlama manfaatli transport yo‘laklarini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Samarqandda davom etayotgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bu borada muhim ahamiyatga ega. Jumladan, davlatimiz rahbari sammit oldidan “Euronews”ga bergan intervyusida mana shu masalalarga alohida to‘xtalib, “Biz YI bozoriga yuqori sifatli, ekologik toza va Yevropa standartlariga javob beradigan mahsulotlarni ko‘proq yetkazib berishga tayyormiz. Bugungi kunda samarali transport logistika yo‘laklarini rivojlantirish ahamiyati ortib bormogda va Markaziy Osiyo Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi shunchaki “ko‘priki” emas, balki global iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Shu ma’noda, biz Yevropa Ittifoqining “Global darvoza” strategiyasini mintaqadagi asosiy transport loyihalari bilan uyg‘unlashtirishni,

Transkaspiy transport yo‘lagini ilgari surish bo‘yicha “Harakatlar rejasi”ni birgalikda ishlab chiqishni taklif etamiz. Bu investitsiyalar ortishi, infratuzilma rivoji va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yangi sur‘at bag‘ishlaydi”, dedi.

O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda yangi xalqaro miqyosdagi transport yo‘laklarini shakllantirish va mavjudlarini takomillashtirish bo‘yicha yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo va sarmoyaviy aloqalarni izchil rivojlantirib borayotgani ham ayni haqiqat. Oxirgi yetti yilda Markaziy Osiyo davlatlari bilan YI o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi to‘rt barobar oshgani ham buni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, yevropalik ishblarmonlarning mintqa, xususan, O‘zbekiston bilan savdo va sarmoyaviy hamkorlik imkoniyatlariga qiziqishi kuchayib borayotganidan darak beradi.

Bugun Transkaspiy yoki “O‘rta yo‘lak” xalqaro multimodal transport yo‘lagi butun dunyo hamjamiyatining diqqat markazida bo‘lib turibdi. Xitoy, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlarini Yevropa bilan bog‘lovchi muqobil yo‘lak sifatida shakllantirilmoqda.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida bir necha transport yo‘lagi yo‘lga qo‘yilishi o‘zaro savdo-sotiq va iqtisodiy ko‘rsatkichlar hamda aholi turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu maqsadda barcha hamkor davlatlar hamda tashkilotlar birgalikda izchil harakat qilishi lozim.

Mamanbiy OMAROV,
transport vazirining birinchi o‘rinbosari

O‘ZARO MANFAATLI ALOQALARNI KENGAYTIRISH BO‘YICHA FAOL SA‘Y-HARAKATLAR

Jahonning yetakchi ommaviy axborot vositalari Samarqanddagi yirik xalqaro anjuman haqida

Samarqandda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bo‘lib o‘tmoqda. Mazkur tadbir muhim siyosiy muloqot maydoni sifatida ikki mintaq o‘rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichni boshlab beradi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tayotgan sammitda Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog‘iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirok etmoqda.

Sammit xorijiy ommaviy axborot vositalarida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Xususan, ko‘plab bosma va elektron nashrlar sammitga bag‘ishlangan tahliliy maqolalarni chop etyapti. Ularda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formatidagi birinchi rasmiy sammitning O‘zbekistonda, ya’ni tarixiy Samarqand shahrida o‘tkazilishi mamlakatimizning mintqa integratsiya jarayonlaridagi mustahkamlovchi roli hamda “Markaziy Osiyo plyus” platformalarida mintaqaviy o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro aloqalarni kengaytirish bo‘yicha faol sa‘y-harakatlarining e’tirofi ekanligi qayd etilgan.

Xususan, Yevropa Ittifoqi kengashi rasmiy portalida e’lon qilingan maqolada sammit iqtisodiyot, ekologiya va siyosat sohalarida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgani alohida ta’kidlandi. Shuningdek, Samarqand barqaror rivojlanish, iqlim o‘zgarishi va xavfsizlik sohasida tajriba almashish va qo‘shma yechimlarni amalga oshirish uchun muloqot maydoniga aylanishi qayd etildi.

Yevropa Ittifoqining “EU Reporter”, “The Brussels Times” va “Eurasia

Magazine” kabi yetakchi onlayn-portallarida O‘zbekiston o‘zini mintaqaviy va mintaqalararo hamkorlik platformasi sifatida ko‘rsatayotgani hamda ekologik barqarorlikni oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihalarga sodiqligini namoyish qilayotgani qayd etilgan. Vengriyaning mashhur “Daily News Hungary” va “Hello Magyar” nashrlari sammit O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida iqtisodiyot, energetika, transport, ekologiya va raqamli iqtisodiyot kabi muhim sohalarni qamrab olgan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning kuchga kirishini tezlashtirishi mumkin deb hisoblaydi. Ispaniyaning yetakchi “El Mundo Financiero” elektron nashri Samarqand sammiti O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish yo‘lida muhim bosqich bo‘lishi mumkinligini ma’lum qilgan.

Sammitga Yaqin Sharqdagi yetakchi ommaviy axborot vositalari ham alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, Qatarning “Asian Telegraph Qatar” gazetasida bosilgan maqolada yozilganidek, sammit Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Saudiya Arabistonining “An Nahar News” va Iordaniyaning “Ammon News” gazetolari ham sammitni Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida e’tirof etdi. Nashrlarda qayd etilganidek, tomonlar qayta

tiklanadigan energiya, kimyo va farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va logistika kabi sohalarga e’tibor qaratadi.

Misrming “Sada al-Balad” axborot agentligi mazkur sammit O‘zbekistonning “GSP+” maqomi doirasida Yevropa Ittifoqiga eksport hajmini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochishini urg‘ulagan.

Xitoyning nufuzli ommaviy axborot vositalari, jumladan, “Sinxua” axborot agentligi, “Jenminjibao” gazetasi, shuningdek, “Lookwe” va “Psearcher” jumallari ushbu sammitning muhimligini ta’kidlab, uning yakunida “Mintaqaviy “yashil” rivojlanish konsepsiyasi” taqdimoti o‘tkazilishini ma’lum qildi. Ushbu konsepsiya iqlim o‘zgarishi masalalari bo‘yicha hamkorlikka mustahkam asos yaratadi. “YI bilan sertifikatlashtirish, raqamli transformatsiya va O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi sohasidagi hamkorlik o‘zbek tovarlarining raqobatbardoshligini oshirishi va savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashi kutilmoqda”, deyilgan materiallarda.

“Islamabad Post”, “The Gulf Observer”, “The Europe Today” va “Pakistan in the World” kabi Pokistonning yetakchi ommaviy axborot vositalari O‘zbekiston va Yevropa o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun transport-logistika infratuzilmasi muhimligiga e’tibor qaratdi. Nashrlarda sammit logistika yo‘nalishlari, jumladan, Transkaspiy multimodal koridorini muhokama qilish uchun muhim platformaga aylanishi, o‘z navbatida, Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yaxshilashi ta’kidlangan.

Markaziy Osiyo davlatlarining ommabop ommaviy axborot vositalari, xususan, “Kazinform” XAA, “Kabar” QMAA, “Xovart”, “Alliance Press”, “Avesto” axborot agentliklarining xabar berishicha, sammit

mintqa mamlakatlari o‘rtasida ilmiy va ta’lim sohasidagi hamkorlik uchun yangi uflarni ochadi. Turkmanistondagi “News Central Asia” axborot agentligi yevropalik sayyohlarning ehtiyoj va afzalliklarini hisobga olgan holda O‘zbekistonning turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Yevropa kompaniyalarini jalb etish iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratgan. Qirg‘izistondagi bir qator elektron nashrlar Markaziy Osiyo uchun muhim bo‘lgan ushbu sammit mintaqaning sheriklik va umumiyy farovonlik platformasi maqomini mustahkamlashga ishonmogda. Shuningdek, ular mintaqadagi barcha davlatlar bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni yakunlash va ularning “GSP+” tizimiga qo‘shilishini qo‘llab-quvvatlash muhimligini qayd etgan. “Bernaza” (Malayziya), “Milano Finanza” (Italiya), “Berliner Zeitung” (Germaniya), “Finančné Noviny” (Slovakiya), “Masarat Center for Strategy & Media”, “Al-Diplomasy”, “Wrkaa News” (Saudiya Arabistoni), “TOLOnews” (Afg‘oniston), “World News” va “Daily Big Digit” (Pokiston), “Open4business”, “Fixygen”, “Gordon” (Ukraina), “Orient” (Turkmaniston) kabi xorijiy elektron va bosma nashrlar, shuningdek, boshqa mamlakatlarning bir qator yetakchi axborot resurslari Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlikning turli yo‘nalishlariga e’tibor qaratmoqda.

Muxtasar aytganda, xorijiy ommaviy axborot vositalari “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sammiti tomonlar o‘rtasidagi strategik sheriklikning yangi sahifasini ochishini alohida ta’kidlamogda. Sammitda siyosiy, iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumana-nitar aloqalarni mustahkamlash, iqlim o‘zgarishi, mintaqada xavfsizlikni ta’minlash kabi dolzarb global muammolarni hal qilishga yordam beradigan aniq kelishuvlar imzolinishi kutilmoqda.

“Dunyo” AA

Prezident tashabbuslari amalda OROL MADANIYAT SAMMITI XALQARO MULOQOT VA HAMKORLIK UCHUN GLOBAL PLATFORMA

Prezidentimizning joriy yil 28-martdagi qaroriga muvofiq, 4-6-aprel kunlari birinchi Orol madaniyat sammiti Samarqand iqlim forumi bilan uyg‘un holda Samarqand va Navus shaharlarida yuqori saviyada tashkil etiladi.

Orol madaniyat sammiti Orol dengizi mintaqasidagi ekologiya, madaniyat va barqaror rivojlanish bo‘yicha dolzarb masalalarni muhokama qilish maqsadida san’at, fan va keng jamoatchilik vakillarini birlashtiruvchi noyob anjumandir. Sammit mahalliy va xorijlik mutaxassislar, ijodkorlarni bir joyga to‘plab, ularga g‘oya almashish, hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish va innovatsion loyihalarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu tadbir Orolbo‘yi mintaqasini san’at, madaniyat, dizayn va ilm-fan orqali ijtimoiy va ekologik jihatdan o‘zgartirishga qaratilgan yangi loyihadir. Shuningdek, sammit Orol dengizi ekotizimini asrab-avaylash, mahalliy madaniyatni xalqaro maydonda ommalashtirish bo‘yicha yangi strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Sammitning uzoq muddatli samarasi mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, barqaror rivojlanish loyihalariga investitsiya jalb qilish va mahalliy tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratishdan iborat. Kelgusida ishtirokchilar geografiyasini kengaytirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish va mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun innovatsion yechimlarni joriy etish rejalashtirilgan. Orol madaniyat sammiti nafaqat muhokamalar maydoni, balki Orolbo‘yi merosini asrab-avaylash va kelajakda rivojlantirishga qaratilgan haqiqiy harakatlar maydoniga aylanadi.


O‘zbekiston 2023-yil 22-24-mart kunlari BMTning Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan suv resurslari konferensiyasida

Orol madaniyat sammiti loyihasini amalga oshirish tashabbusini ilgari surgan edi. Endilikda Prezidentimiz qaroriga asosan, sammit har 18 oyda — bahor yoki kuzda o‘tkaziladi. Sammit Qoraqalpog‘istonning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ekologik, ijtimoiy va madaniy yechimlarni izlash uchun mahalliy va xalqaro faollar, rassomlar va olimlarni birlashtiradi.

Qarorga muvofiq, ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha Orolbo‘yi mintaqasi va dunyoning boshqa mintaqalarida yuzaga kelgan ekologik muammolarni muhokama qilish, oqilona yechimlarni taqdim etish uchun global platforma yaratish va ushbu muammolarni hal etishda fanlararo yondashuvlarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, barqaror qarorlar va strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan ta’lim dasturi asosida Orol maktabini yaratish bilan birga, yetakchi mahalliy va xorijlik mutaxassislar va tashkilotlar bilan hamkorlikda Orolbo‘yi mintaqasida suv va tuproq tadqiqotlari o‘tkaziladi.

Sirasini aytganda, Orol madaniyat sammiti mintaqaning ekologik va madaniy muammolariga e’tiborni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo‘shadi, ijodkorlarni yechimlar topishga ilhomlantiradi, Orol dengizini va mahalliy jamoalarning madaniy merosini asrab-avaylashdan manfaatdor bo‘lgan odamlarni birlashtiradi.

Olimjon DUYSENBOYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent



YANGI O‘ZBEKISTON

DAVR NAFASI

Samarqand ruhi

DUNYONI BIR NUQTAGA

BIRLASHTIRAYOTGAN O‘ZBEKISTON

Boshlanishi 1-betda

Bu birlik va hamjihatlik butun dunyoni hayratlantirdi. Do'stlikning kuchi, qudrati nima ekani dunyoga sezildi. Haqiqatan mintaqada davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik, og'izburchilik ulkan muvaffaqiyatlarga yo'l ochdi. Ushbu yo'l orqali dunyo O'zbekistonga oqib kelmoqda. Bu yo'l Samarqand shahrida o'tkazilayotgan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitiga zamin yaratdi.

E'tibor bering: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligidagi sammitda Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirok etib, "Kelajakka sarmoya kiritish" shiori ostida qator masalalarni muhokama qiladi. Hatto Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Yevropa investitsiya banki rahbarlari ham Samarqandda.

Endi savol tug'iladi: sammitda qanday masalalar ko'rib chiqiladi va muloqot uchun nega aynan O'zbekiston, Samarqand tanlandi?

Avvalo, Samarqand o'zining azaliy mavqei, imijini tiklaganini aytish joiz. Eng xavfsiz va jozibali hudud sifatida dunyo nigohini o'ziga qaratmoqda. Bu qadimiy shahar azaldan savdo, fan va diplomatiya markazi bo'lib kelgan. Madaniyatlar va xalqlarni birlashtirishga xizmat qilgan. Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun eng qulay muloqot maydonidir.

Sammitda, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar hamda amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari e'tibor qaratiladi. Investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, tovar ayirboshlashni ko'paytirish, innovatsiyalar, "yashil" energetika, tog'-kon, qishloq xo'jaligi, transport-

Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari va Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari rahbarlari Samarqand xalqaro iqlim forumining yalpi majlisida ham ishtirok etadi. Demak, xalqaro anjuman bu faqat sammit bilan bog'liq emas, balki Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi bog'liqlikni yanada mustahkamlash va chuqur tarixiy ildizlar, umumiy manfaatlar va yaqin hamkorlikka obyektiv itilish bilan chambarchas bog'liq.



logistika va raqamlashtirish sohalarida qo'shma dastur va kooperatsiya loyihalari ilgari suriladi. Qolaversa, madaniyat, turizm, fan, ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlarda faol fikr almashinuvlar tashkil etiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari va Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari rahbarlari Samarqand xalqaro iqlim forumining yalpi majlisida ham ishtirok etadi. Demak, xalqaro anjuman bu faqat sammit bilan bog'liq emas, balki Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi bog'liqlikni yanada mustahkamlash va chuqur tarixiy ildizlar, umumiy manfaatlar va yaqin hamkorlikka obyektiv itilish bilan chambarchas bog'liq. Sammitning formati noyob ekani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni iqtisodiyot va investitsiyalar, barqaror rivojlanish, xavfsizlik va raqamli transformatsiya muhokama markazida bo'ladi.



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi qo'mita raisi

Jahon transport zanjirining
muhim bo'g'ini

Keling, endi Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarga qisqacha to'xtalib o'tsak. Buning uchun oxirgi yetti yilga nazar tashlaymiz. Shu yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlarining YI bilan tovar ayirboshlash hajmi to'rt barobar o'sib, 54 milliard yevroga yetdi. O'zbekiston bu jarayonning eng yetakchi ishtirokchisi sifatida Yevropa biznesining Markaziy Osiyoga qiziqishi oshishiga munosib hissa qo'shmoqda.

Bugun dunyo qalqib turibdi. Iqlim o'zgarishi, global isish, qurg'oqchilik, cho'llanish, suv tanqisligi, tabiatdagi muvozanat buzilishi, sanoatning jadal rivojlanishi orqali atmosfera qachindilar haddan tashqari ko'p chiqarilishi kabi muammolar ayni dam insoniyatni chuqur o'ylantirmoqda. Mazkur muammolar YI va Markaziy Osiyoni faol hamkorlikka chorlamoqda. Bu birlashuv va sheriklikka ehtiyoj nihoyatda katta.



Chunki global o'zgarishlar va iqlim muammolari sharoitida Yevropa Ittifoqi bilan barqaror sheriklikni yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham qayta tiklanuvchi energiya manbalari va "yashil" energetikani rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan biridir. Bu YI uchun ham juda manfaatli. Shu bois, O'zbekiston kelgusi besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazishni maqsad qilib qo'ygani ham bejiz emas.

E'tiborli jihati shundaki, bugun Yevropa Ittifoqiga a'zo 27 davlatda 500 milliondan ortiq odam istiqomat qiladi. Mintaqaning nominal yalpi ichki mahsuloti 19 trillion yevrodan oshadi. Sotib olish paritetiga ko'ra, 26 trillion yevroga teng. Dunyodagi eng yirik bozor.

U nafaqat iqtisodiy qudrat, balki huquqiy, texnokrat va ekologik standartlarni belgilaydigan global platforma sifatida ham tan olingan. Demak, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga intilayotgani,

qo'l berayotgani shunchaki uchrashuv yoki sammitni o'tkazish emas, balki iqtisodiy zaruraddir. Bunda teng huquqli sheriklik hukm suradi va sammitda ana shu jihatlariga katta e'tibor qaratiladi.

Ushbu uchrashuv mintaqamiz va Yevropa Ittifoqi o'rtasida hamkorlik hamda o'zaro bog'liqlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Markaziy Osiyo jahon transport zanjirining muhim bo'g'iniga aylanadi.

Sammitning aynan Samarqandda o'tkazilishi haqida fikr yuritsak, u O'zbekistonning xalqaro imiji va nufuzi oshishiga xizmat qilishini ta'kidlash joiz. Anjumanga mezbonlik O'zbekistonning mintaqadagi yetakchi davlat sifatidagi o'rini yanada mustahkamlaydi. Qolaversa, mamlakatimiz tashqi siyosatining ochiq, pragmatik va muloqotga tayyor ekani oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishda muhim omildir. Boshqa jihatdan qaraganda, sammit O'zbekiston uchun muhim siyosiy voqea bo'libgina qolmay, amaliy imkoniyatlar manbai sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Samarqandda o'tayotgan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti xalqaro munosabatlar tizimida muhim voqea sifatida baholanmoqda. U nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlaydi, balki mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va siyosiy hamkorlik uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Osiyo bozorlariga yo'l ochuvchi
muhim ko'prik

O'z navbatida, O'zbekistonning strategik joylashuvi ham Yevropa Ittifoqi uchun Osiyo bozorlariga yo'l ochuvchi muhim ko'prikdir. Qolaversa, so'nggi sakkiz yilda O'zbekiston faqat resurs yetkazib beruvchi emas, balki intellektual va iqtisodiy sherik bo'lishga tayyor davlat sifatida rivojlandi.

E'tiborli jihati shundaki, Samarqand sammiti O'zbekiston va mintaqada atrof-muhitni asrash hamda "yashil" loyihalarni kengaytirishda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Orol muammosi, suv resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishiga moslashuv kabi masalalarda Yevropa tajribasi va mablag'lariga O'zbekistonda ehtiyoj bor. Bunday sarmoyalar kiritilishi ham bejiz emas. "Yashil" energetika Yevropa Ittifoqi uchun ustuvor yo'nalishdir.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi hamkorlikning me'yoriy-huquqiy bazasi yil sayin mustahkamlanib bormoqda. E'tiborlisi, Bryussel so'nggi yillarda Markaziy Osiyoning beshta davlati bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzolayapti. Bugungacha Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston Yevropa Ittifoqi bilan bunday shartnomalarni imzoladi. Tojikiston va O'zbekiston mazkur hujjatni imzolash arafasida turibdi. Bundan Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mintaqasi o'rtasidagi aloqalar huquqiy maqomga ega ekani ko'rinadi. Bunda teng huquqli hamkorlik amaliy natijasi aks etib turibdi.

Samarqand sammiti O'zbekistonning faqat diplomatik yutug'i emas. U iqtisodiy, ijtimoiy va ekologiya sohalarida ham rivojlanish dryayveriga aylanadi. Albatta, mamlakatimizning Yevropa bilan aloqalari har tomonlama yangi bosqichga ko'tarilishi xalqaro miqyosdagi nufuziga ijobiy ta'sir o'tkazadi. O'zbekistonnin dunyo taniydi, tan oladi. Ishbilarmonlarning keng hudud bo'ylab, iqtisodiy yo'nalishdagi biznesini ochiq va erkin amalga oshirishi uchun imkoniyat tug'iladi.

Masalan, 2024-yilda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi davlatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash qiymati 6,4 milliard dollarga yetgani ham quvonarli natija. Yoki 2023-yilga nisbatan bu ko'rsatkich 5,2 foiz ko'paygani Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik tobora rivojlanib borayotganini tasdiqlab turibdi. Yevropa kapitali ishtirokida mingdan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda. Investitsiya loyihalari qiymati esa 30 milliard yevroni tashkil etmoqda.

Bu iqtisodiy salohiyatimizni yuksaltirish bilan birga, mustaqil va suveren davlat sifatida obro'-e'tiborimizni ham oshiradi. Xalqimizning o'z yurti, vatani tenglar ichra teng, o'z so'zi hamda o'z ovozigga ega davlat ekanidan g'ururlanishiga imkoniyat yaratadi. Bugun O'zbekiston to'y og'ushida, dunyodan to'ynolar kelayotgandek. Bugun O'zbekiston dunyoni bir nuqtada birlashtirayotgandek ko'rinmoqda. Bu nuqta eng nurl va istiqbolli maskan yangi O'zbekistondir! Xalqaro anjuman esa uning istiqbolli porloq ekanidan dalolat berib turibdi.



Kun mavzusi



2025-yil Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston uchun xalqaro siyosiy maydonda muhim burilish nuqtasidir. Zero, ilk bor azim Toshkentda tashkil etilayotgan anjuman nafaqat diyorimizning xalqaro nufuzini yanada oshirish, balki mintaqaning global siyosiy jarayonga integratsiyalashuvida ham muhim qadam hisoblanadi.

JAHON PARLAMENTARIZMI
TARIXIDAGI
MUHIM BOSQICH

Boshlanishi 1-betda

Anjuman davomida jahonning nufuzli parlament delegatsiyalari aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqini himoya qilish, gender tenglikka erishish, ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlash kabi hayotiy dolzarb mavzular muhokama etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bugungi murakkab, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda ijtimoiy adolat, tenglik va barqaror taraqqiyotga erishish har bir davlat, jamiyat uchun muhim vazifaga aylandi. Shu ma'noda, Parlamentlararo Ittifoqning Markaziy Osiyo tarixida ilk bor Toshkent shahrida o'tadigan 150-yubiley assambleyasi O'zbekiston uchun muhim siyosiy va strategik voqelik sanaladi.

1889-yil tashkil etilgan Parlamentlararo Ittifoq qonun chiqaruvchi organlar orasida eng yirik va nufuzli xalqaro tuzilmadir. 180 dan ziyod mamlakatni birlashtirgan tashkilot tarkibida 15 mintaqaviy parlament, 15 kuzatuvchi tashkilot faoliyat yuritadi. Mazkur tadbirning yurtimizda o'tkazilishi "O'zbekiston — 2030" hamda boshqa strategik dasturlar doirasidagi izchil islohotlar samarasini keng xalqaro jamoatchilikka yetkazish uchun ham qulay maydon va imkoniyatdir.

2025-yil Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston uchun xalqaro siyosiy maydonda muhim burilish nuqtasidir. Zero, ilk bor azim Toshkentda tashkil etilayotgan anjuman nafaqat diyorimizning xalqaro nufuzini yanada oshirish, balki mintaqaning global siyosiy jarayonga integratsiyalashuvida ham muhim qadam hisoblanadi. Assambleyani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar qatoriga parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik va demokratiyani mustahkamlashni ham kiritish mumkin.

Yana bir nufuzli tadbir, shubhasiz, kuni kecha navqiron Samarqandda boshlangan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur forum oldidan dunyoga mashhur axborot manbai — "Euronews"ga bergan intervyusida Markaziy Osiyoning salohiyati, jahonning yetakchi davlatlari mintaqamizga intilayotganiga alohida to'xtaldi:

"Markaziy Osiyo endi tarixning chetida emas, balki o'z strategik kun tartibini shakllantirayotgan, jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanmoqda. Siyosiy iroda, yuqori darajadagi o'zaro ishonch va qo'shma iqtisodiy tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Markaziy Osiyo beshligida O'zbekistonning raisligi davrida biz quyidagi uchta ustuvor yo'nalishga alohida e'tibor qaratamiz: mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash".

Yuqorida Prezidentimiz ta'kidlagan uch muhim yo'nalish zamirida kuchli qonunchilik — parlament, huquqiy salohiyat va xalqaro hamkorlik yotadi. Shu ma'noda, Toshkentning 150-assambleyaga mezbonlik qilishi mintaqamizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirib, mamlakatimizni global siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Qolaversa, qonun ijodkorligi, parlament nazorati kabi muhim yo'nalishlardagi milliy tajribamiz dunyo hamjamiyati, xorij parlamentlari va jamoatchiligi tomonidan keng e'tirof etilayotgani ham haqiqat.

Bu natijalarga o'z-o'zidan erishilayotgani yo'q. Keyingi yillarda milliy parlamentimiz huquqiy demokratik o'zgarishlar silsilasida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish jarayoni va tashqi siyosatning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Oliy Majlis faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan xalqaro parlamentlararo hamkorlik yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasidagi keng qamrovli islohotlarga hamohang ravishda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Ijtimoiy taraqqiyot va adolat
uchun parlament harakati

Assambleya bu yil ayni mavzuga murojaat qilmoqda. Zero, parlamentlarga endi faqat qonun qabul qiluvchi emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish, kambag'allikni



Abdusaid KO'CHIMOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi

qisqartirish, teng imkoniyatlar yaratish, inson qadriini ulug'lashda tashabbuskor siyosiy subyekt sifatida qaralayapti.

Xalqaro tadbir kun tartibida tinchlik va xavfsizlik, inson huquqi, iqlim o'zgarishi, yoshlar va ayollar faolligi, qurolli mojarolar ta'siri, BMT bilan hamkorlik kabi dolzarb yo'nalishlar ham qamrab olingan. Xususan, Falastindagi vaziyat bo'yicha ikki davlat mezoniga asoslangan yechimni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosiy bayonot va tinchlik tashabbuslari muhokama markazida bo'ladi. Yoshlar forumi, ayol deputatlar uchrashuvi, sun'iy intellekt, bolalar huquqi va iqlim masalasi bo'yicha alohida tadbirlar ham o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Umuman, ishtirokchilar global muammolarni hal etishda parlamentlar rolini kuchaytirish bo'yicha ilg'or tajriba almashish imkoniga ega bo'ladi. Ishonchim komilki, bu yirik anjuman samarali muloqot va muhim qarorlar qabul qilish uchun qulay maydon bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston tajribasi
raqamlarda...

O'zbekiston so'nggi yillarda ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta'minlash borasida ulkan yutuqlarga erishdi. Bu muvaffaqiyatlar mamlakat yetakchisining tashabbuskorligi, insonparvarligi, uzoqni ko'zlaguvchi yuqori siyosiy salohiyati, metin irodasi va jonkuyarlik bilan olib borayotgan qat'iy harakatlari bilan chambarchas bog'liq, albatta. Shu o'rinda statistikaga e'tibor qaratsak.

Joriy yil 102 turdagi ijtimoiy xizmat mahalla darajasiga tushirildi. Natijada nogironlarning bolalar uchun muntazam parvarishlash xizmati yo'lga qo'yilib, ko'plab ota-onalarning 4000 nafar sharoit yaratildi. Harakatlana olmaydigan 4000 nafar yolg'iz keksaga o'z uyida ijtimoiy xizmat ko'rsatilmoqda. Mahallalarda 95 ming muhtoj odamga ijtimoiy xodim orqali yordam berildi. 51 ming kishiga nogironlik belgilandi va imkoniyati cheklangan 5000 bola bog'chamakta bog'chalariga joylashtirildi.

Mamlakatning har bir fuqarosi e'tiborda ekani ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat prinsipi amalga oshirilayotgan islohotlarda hayotiy tasdiq'ini topmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar huquqi va manfaatini to'liq ta'minlash, qadr-qimmatini ulug'lash davlat siyosatida yetakchi masalaga aylandi.

2017-yil boshqaruv sohasida xotin-qizlar o'rtacha 20 foizni tashkil etgan. Hozir bu raqam 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, Senat a'zolarining 27 foizi ayollar. O'tgan yil Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibidagi xotin-qizlardan 3 nafari oltin, 8 nafari kumush, 3 nafari bronza medalni qo'lga kiritgani tarixda eng yuqori natija sifatida muhrlandi.

Xulosa bunday: O'zbekiston xalqaro anjumanga hozir. Mamlakatimiz jahon parlamentarizmi tarixidagi muhim bosqich — inson qadriini ustuvor qo'yadigan yangi siyosiy yo'l boshida turibdi. Assambleyada qabul qilinadigan hujjatlar — deklaratsiya va rezolyutsiyalar XXI asrdagi parlament faoliyati uchun amlash "yo'l xaritasi" bo'lib xizmat qiladi.



“Dolzarb bir oylik” safarbarligi

Ayrimlar qishin-yozin ish yo'qligidan nolihsdan charchamaydi. “Tomorqangga ul-bul eksang bo'lmaydimi?” deya maslahat bersang, bahonasi ham tayyor. “Dehqonchilikni tushunmayman, buning ustiga, bir parcha yerdan qancha ham foyda olardim”, deydi boshini qashlab. O'tloqda bedana ko'p, dangasada bahona deb shuni aytishsa kerak. Ammo “izlagan imkon topar”, deya tomorqasidagi har bir qarich yerdan unumli foydalanayotgan yurtdoshlarimiz ham yo'q emas.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

BITTA TOMORQADAN UCH MARTA HOSIL VA 500 MILLION SO'M DAROMAD

Beruniy tumanidagi “Maxtumquli” ovul fuqarolar yig'inida yashovchi Farhod Bekimbetov uy atrofidagi 5 sotix maydonda 2 ta issiqxona qurib poliz ekinlari ko'chatlarini yetishtiryapti. 2024-yilda tajriba asosida ish boshlagan xonadon egasi bu yil 5000 quti ko'chat yetishtirishni yo'lga qo'ygan. Mavsumiy 4 ishchi bilan ko'chatlarni qutlarga joylab, issiqxonada saqlamoqda. Ekish mavsumiga tayyor holatga kelishi bilan sotish boshlanadi.

Asalarichilik va tabiiy asal yig'ishda 40 yildan ortiq tajribaga ega Erkaboy Matqurbonovning xonadonida ham ishlar qizg'in. Xonadon tomorqasida asalarichilik, baliqchilik, bedana boqish yo'lga qo'yilgan.

O'tgan yili 2200 kilogramm asal olib, 140 million so'm daromad ko'rgan uy egasi bu yil ham yaxshi foyda ilinjida ishlarni boshlab yuborgan. 200 bosh bedana har kuni 100-140 dona tuxum beradi. Hududdagi do'konlarga topshirib, kunlik daromadga ega bo'lmoqda. Erkaboy Matqurbonovning 20 dan ortiq shogirdi bor. Asalarichilik yo'nalishida ustoz-shogird an'anasini davom ettirib kelmoqda.

Beruniy tumanini bobodehqonlar yurti, desak haqiqatni aytgan bo'lamiz. Har qarich yerdan samarali foydalanib kelayotgan tajribali dehqon tomorqachilar bu yilgi mavsumni ham fevral oyidan boshlab oldi. Birlik mahallasidagi Yo'ldosh Narimbetov tomorqasidan yiliga uch marta hosil oladi. 31 sotix tomorqada sabzavot, poliz ekinlari ko'chatlari issiqxonada yetishtirilib, har yilgi mavsumda Buxoro, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonning barcha tumanlariga yetkazib berilmoqda.

U erta bahordan tomorqasiga karam ekan. Karam may oyining boshidan hosilga kirib ichki bozorni ta'minlaydi. Yo'ldosh Narimbetov bu yil tomorqadan 500 million daromad olishni rejalashtirgan. Mavsumiy 10 ishchi ko'chatlarni parvarishlash bilan band. Issiqxona ko'chatdan bo'shagach, o'rniqa yogzoli poliz mahsulotlari ekiladi. Ishning ko'zini bilgan xonadon egalari mehnatning tagi rohat, deya qo'li qo'lga tegmay ishlayapti.

Beruniy tumanidagi “Beruniy” ovul fuqarolar yig'ini ahli ham tomorqadan samarali foydalanib, yiliga 2-3 marta hosil oladi. Hududning drayver sohasi chorvachilik va dehqonchilik bo'lgani boisi, mahalladagi kambag'al oilalarga issiqxonalar uchun zarur barcha anjomlar olib berilgan.

— Karamni yanvarning 10 sanasida, pomidorni fevralning 20 sanasida ekanmiz, — deydi sakkiz yillik ish tajribasiga ega tomorqachi Oqnazar Eshimbetov. — Issiqxonamiz daromadi ham yomon emas. Har yili pomidordan 150 million so'mgacha daromad ko'ryapmiz. Bizga o'tgan yili bir gektar yer ajratib berishdi. Endi daromadimiz karrasiga ortadi.

Namanganlik dehqonlar tajribasi mahalliy aholi uchun o'rnak

Beruniy tumanidagi Oltinsoy qishlog'ida 265 ta oila ijtimoiy reyestriga kiritilgan. Davlatimiz rahbarining joriy yil 6-mart kuni imzolangan “Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to'g'risida”gi farmoyishi asosida “Dolzarb bir oylik” safarbarligi e'lon qilindi.

Oylik doirasida 20 oila tanlab olinib, ularga ixcham issiqxonalar qurish va ko'chat yetishtirish uchun barcha zarur jihozlar mahalla tomonidan bepul berilgan. Asosiy maqsad oilalarni kambag'allikdan chiqarish va doimiy daromad manbaiga ega bo'lishga yordam berishdan iborat.

Tumandagi “Yangi zotli tovuqlar 2022” korxonasi inkubatoriga 8 mingta tuxum jo'ja ochildi uchun qo'yilgan va hozir mingdan ortiq tovuq bor. Parrandachilik sohasini rivojlantirish borasidagi qarorlardan kelib chiqib, sohaga yangi texnologiyalar olib kirish,

asosan, ayollarni bu yo'nalishda ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Beruniy tumanidagi “Ozod intensiv bog” fermer xo'jaligi hududida eksportbop uzumning “Rizamat ota”, “Kelin barmaq” navlari ekilgan. Shuningdek, olma, nok, shaftolining eng saralari yetishtirilmoqda. Qirg sotix maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida ekilgan bodring ko'chatlari 40 kunda hosilga kiradi.

Ayni paytda plyonka ostiga tajriba tariqasida Namangandan kelgan dehqonlar tomonidan o'n ming dona tarvuz va yana shuncha eritashar qovun urug'i qadaldi. Bu yil hosil mo'la bo'lsa, kelasi yil yanada ko'proq joyga qovun-tarvuz ekish rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, bir gektar maydonga kungaboqarning Xitoydan keltirilgan eksportbop “Mega” navi hamda makko'xori ekish boshlangan. Namanganlik dehqonlar Beruniy tumani yerlaridan olgan hosilini eksportga yo'naltirishni niyat qilgan. Bog' hududida 20 dan ortiq mavsumiy ishchi mehnat qiladi.

Ko'chat yetishtirishda Bo'ston mahallasining tajribasi respublikada namuna bo'lib, qariyb 300 ta xonadon bu ish bilan shug'ullanadi. Xonadon egasining 12 sotix tomorqasida 10 ta issiqxonada fevral oyida boshlangan ish o'z natijasini berib, sabzavot va poliz ekinlari ko'chatlarini Buxoro va Xorazmga, Qoraqalpog'istonning Taxtakop'ir, Nukus tumani va Nukus shahriga yetkazib berish yo'lga qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, Beruniy tumani aholisi tomorqadan foydalanishda xalqimizning ming yillik dehqonchilik tajribasi hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan uyg'un holda foydalanib, daromadini o'ttirish bilan birga yurtdoshlarimiz dasturxonini sarxil mahsulotlar bilan to'ldiryapti.

Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Korrupsiya — jamiyat tanasidagi saraton

TARAQQIYOT KUSHANDASINI TUGATISH MUMKIN

Agarki unga qarshi kurashish har birimizning vijdon ishimizga aylansa

Prezidentimiz 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarni tahlil qilib, kelgusi vazifalarni belgilab berdi. Davlatimiz rahbari korrupsiya islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov ekanini ta'kidladi.

Kamola HAMDAMOVA,
IIV JXD Huquqbuzarliklar
profilaktikasi xizmati katta
inspektori, kapitan

Shundan buyon barchamizning xayolimizni bir orzu-istak band qilgan: milliy jamiyatimizda ma'naviy soflikka erishish! Ammo bu istak ortida “Korrupsiya”ni batamom tugatish mumkinmi? degan savol turadiki, uning javobi nihoyatda qiyin va mavhum.

Muammoga nazariy jihatdan qaraganda, o'rnatilgan mexanizm bo'yicha korrupsiya holatlari keskin kamayishi kerakdek. Ammo real hayot asosida mulohaza qiladigan bo'lsak, taraqqiyot kushandasini tugatish uchun faqatgina qonunlar, keskin jazo choralari qo'llashning o'zi kamlik qiladi.

Keling, shu o'rinda bu illatga qarshi jamiyatimiz, keng jamoatchilik ruhidan kelib chiqib kurashish mohiyatiga e'tibor qaratamiz.

O'tgan yillarda korrupsiyaning oldini olish, unga barham berish borasida katta yutuqlarga erishdik. Birgina misol,

bo'lib”, hatto, bolamizning qo'lga pul berib, “Do'xtirning oldiga chiqib, manavini bersang, tezda “spravka” to'g'rilab beradi”, deya korrupsiyaga o'rgatamiz.

Shuning uchun biz o'zimizni tarbiyalab olmasak, korrupsiya moyil-ligiga qarshi oilaviy “emlanish”ni yo'lga qo'ymasak, bu yoqdagi chora-tadbirlar samarasi kutilganidek bo'lmaydi.

Uchinchidan, vijdon tarbiyasini shakllantirishimiz zarur.

Vijdon — kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissi. Shuningdek, u insoniylarning asosiy belgilaridan biridir.

Demak, har birimiz jamiyat oldidagi odamiylik mas'uliyatimizni anglab olsak, uni chuqur tahlil asosida tushunsak, o'z-o'zidan korrupsiya elementlari ham barham topib boradi.

To'rtinchidan, vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishimiz lozim.

Yuqorida korrupsiyani tugatish uchun faqatgina qonunlar, keskin jazo choralari qo'llashning o'zi kamlik qilishini aytdik. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining fikri toza, korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodni



korrupsiya botqog'iga botgan oliy ta'lim tizimi undan tozalandi.

Xo'sh, bunga qanday erishdik? Avvalo, tizim raqamlashtirildi. Dastlab test topshirib, to'plagan baliga ko'ra oliygohni tanlash joriy qilindi. 35 turdagi hujjati inson omilisiz olishga o'tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaydi.

Bu esa har qanday tizimda adolat o'rnatilsa, fuqarolar uchun qulay va zamonaviy texnologiyalar asosida sharoitlar yaratilsa, korrupsiya ortga chekinishiga hayotiy namunadir.

Agar o'zimizni tanqidiy tahlil qilsak, ongimizda katta o'zgarishlar yuz berganiga guvoh bo'lamiz. Bugungi yurtdoshlarimiz kechagi kishilar emas, umummilliy dunyoqarashimiz, yashash tarzimiz, jamiyatdagi yangilanishlarga munosabatimiz mutlaqo o'zgargan. Bularning bari yangi O'zbekistondagi xalqchil islohotlar samarasidir. Bunda “inson — jamiyat — davlat” tamoyili o'z so'zini aytmoqda.

Lekin oldimizda hali uzoq yo'l turibdi. Biz juda katta maqsadlarni ko'zlaganmiz. Shunday ekan, endigi navbat — taraqqiyotimizga raxna soluvchi korrupsiyaga barham berish. Bu o'rinda barchamiz, avvalo, o'zimizni isloh qilishimiz zarur bo'ladi.

Birinchidan, huquqiy ongimizni yuksaltirishimiz kerak.

Har qanday harakat yoki harakatsizlik ortida huquqiy bilimlar ta'siri turadi. O'z haq-huquqini bilgan fuqaro, avvalo, to'g'ri yo'ldan adashmaydi, qolaversa, jamiyatdagi munosabatlarda har qanday lavozimdagi kishi bilan muvozanat o'rnatadi. Bu ham korrupsion muhit yuzaga kelishining oldini oladi.

Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashni o'z o'rniga boshlashimiz maqsadga muvofiq.

Oila miqyosidagi korrupsion muhit eng og'riqli muammomizdir. Farzandlar korrupsion muhit yuzaga kelishining oldini oladi.

Sanjar TURDIQULOV,
jurnalist

Nuroniylarimiz duoga qo‘l ochar ekan “og‘izbirlchilimiz yo‘qolmasin”, deya yuziga fотиha tortadi. Og‘izbirlchilikda gap ko‘p. Bu iboraning ma‘nosi ahillik, do‘st-u birodarlik, degani. Eng asosiysi, bir xil maqsad bilan bir joyga yig‘ilgan turli insonlarga nisbatan aytiladi.



31-mart kuni Xo‘jand shahrida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlat rahbarlari uch mamlakat davlat chegaralari tutash nuqtasi to‘g‘risidagi shartnomani imzolaganini to‘g‘risidagi xabarini eshitib, beixiyor, “og‘izbirlchilimiz yo‘qolmasin”, deya yuzimga fотиha tortdim. So‘ng hujjatning mamlakatlarimiz totuvligi ramzi, taraqqiyot pillapoyalaridan ildamroq odimlash yo‘lidagi zalvorli qadam, katta tarixiy ahamiyatga ega ekani haqida o‘yladim. Axir bu natijaga kecha yo bugungi harakatlari bilan emas, 6-7 yillik tizimli tashabbus va maqsadli rejalari asosida erishdik. Shular to‘g‘risida mulohaza yuritir ekanman, qo‘shni davlatlarimiz bilan bo‘lgan ming yillik qo‘shnichilik, ahil-inoqlik, abadiy do‘stlik zanjirining korroziyaga uchray boshlagan kunlari ko‘z oldimdan kino tasmasiday bir-bir o‘tdi.

Totuvlik

Surxondaryo uch qardosh davlat bilan chegaradosh. Bugun vohaning 724 mahallasida 720 ming 500 dan ortiq oila mavjud. Bobotog‘dan Boysuntog‘gacha keng yastangan, Surxondaryo qoq ikkiga bo‘lib janub tomon enib oqqan bo‘lib manzilda 20 dan ziyod millat va elat vakillari osuda, obod va to‘kin yashamoqda. Katta qurilish va bunyodkorlik maydoniga aylanayotgan Surxon vohasidagi yangilanishlarning asosiy bunyodkori ulug‘ maqsadlar sari dadil odimlayotgan ko‘p millatli surxondaryoliklardir.

Keyingi yillarda tashqi siyosatda “Markaziy Osiyo ruhi” degan tushuncha yuzaga keldi. Bu atamaning yaqqol ifodasini keyingi kunlarda O‘zbekiston rahbarining qo‘shni va qardosh mamlakatlar davlat yetakchilari bilan qator uchrashuvlari natijalari misolida ham ko‘rish, kuzatish mumkin. Yaqinda Tojikistonning Xo‘jand viloyatida bo‘lib o‘tgan rasmiy tadbirlarda bu ruh yanada yaqqolroq ko‘rindi. Shu kunlarda joylarda, xususan, Surxondaryo viloyatidagi mahallalarda Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan tadbirlar “Do‘stlik va hamjihatlik ulug‘langan yurt”, “Vatan

*** Ikki qo‘shni orasidan ola mushuk o‘tib, darvozalarga kattakon qulf osilsa, bu kelishmovchilik jabrini eng ko‘p kim tortadi? Albatta, kechagina aka-uka, opa-singil, jon-jigar bo‘lib, birga o‘ ynob yurgan bolalarga qiyin bo‘ladi. Yopiq darvozalar, baland devorlar ularning qaytib diydorlashuviga to‘siq bo‘la olar, ammo mehr-muhabbat, ko‘ngil bog‘larini uza olmaydi. Ha, qo‘shni yurtlar bilan necha yillar davom etgan sovuq munosabat xalqlarimiz uchun katta bir sinov davri bo‘ldi. Ildizlari bir, urf-odat, qadriyatlari hamohang, ming yillik quda-anda, qarindosh-urug‘ bo‘lib ketgan insonlarimiz muayyan vaqt dard-u hasrat ichida qoldi. Keling, bolalik xotiralarimdan birini sizga so‘zlab beraman.

*** Esmida, tuni bilan piqillab yig‘lab chiqqan onamning holi parishon edi. Uning ko‘zlari qizarib, shishib ketganini ko‘rib, mening ham o‘pkam to‘lib turardi. Ammo volidamning nega yig‘layotganini bilmaganim uchun ko‘zlarimdan sira yoshi to‘kilmasdi. Nonusha vaqtida onam zarda bilan “Bugun men chegaraga boraman”, dedi. Otam og‘ziga solgan luqmasini chaynashdan to‘xtab, “Foydasi yo‘q, axir viza ololmadik-ku”, dedi kuyinchak ohangda.

Onam “Baribir boraman, otamni so‘nggi yo‘lga kuzatolmasam, qanday farzand bo‘ldim axir”, deya tag‘in ko‘z yosh qilishga tushdi. Otam o‘rtaga cho‘kkan bir oz sukutdan so‘ng sekingina yuziga fотиha tortib, o‘rmidan turib ketdi. O‘sha kuni onam bilan odamlar turnaqorat navbatiga tizilgan darvoza yoniga bordik, ammo unga yaqinlashmasdan, ancha vaqt termilib o‘tirdik. Yuzimga tushgan tomchilar osmonimizni qoplagan qora bulutlardan tushgan yomg‘irimi yoki onamning ko‘z yoshlari, aniq esimda yo‘q... Keyinchalik anglab yetdim. O‘shanda Tojikistonda yashaydigan bobom vafot etgan ekan. Viza ololmaganimiz tufayli onam otasining janazasida qatnasha olmabdi. Bunday xotiralar birgina menda emas, o‘sha davrlarda qarindoshlari qo‘shni mamlakatlarda yashagan ko‘pgina yurtdoshlarimizda bor. O‘sha davrlarda xalqimiz orasida o‘n-yigirma yillab otanasini ko‘rolmagan ayollar, aka-ukalari diydorlari to‘ya olmagun chachadan qancha insonlar bor edi. Yurtidoshlarimiz hayotida ko‘z yarakdek iz qoldirgan ushbu ma‘shum kunlar davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida ham ko‘p yillik turg‘unlikka sabab bo‘lgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyoning o‘rtasida joylashgan O‘zbekiston ostona hatlab dunyo davlatlari bilan hamkorlik




qilishi, savdo-sotiq, xorijiy investitsiyalarni jalb etishi uchun qo‘shni davlatlar bilan chegaralarning yopiqligi yaxshigina to‘siq bo‘lardi. Xususan, bir tadbirkor o‘z mahsulotini eksportga chiqarishi yoki xomashyo import qilishi uchun faqatgina havo yo‘llaridan foydalanishga majbur edi. Bu esa mahsulot tannarxini sezilarli darajada oshirardi. Notinch hudud sifatida qaralgani tufayli chet ellik sarmoyadorlardan mamlakatimizda yirik bunyodkorliklar uchun katta investitsiya jalb qilish imkoni deyarli yo‘q edi. Bir so‘z bilan aytganda, yopiq eshiklarimizdan taraqqiyot epkini ichkari kirolmadi. Siyosiy vaziyatning bunday taranglashuviga mintaqadagi umumiy resurslardan hamma o‘zaro maslahatlashmasdan foydalanishi, xususan, davlat chegaralaridagi muammoli hududlarni barcha o‘ziniki deb hisoblashi sabab bo‘ldi. Shuningdek, tashqi kuchlarning g‘arazli maqsadda davlat va xalqlarimizni bir-biriga gijgilashga urinishi, ataylab ig‘vo tarqatishiga yuqoridagi omillar qo‘l kelardi. Vaziyat shunchalik chuqurlashdiki, hatto madaniy yodgorliklar, xalq dostonlari yoki ulug‘ bobokalonlarimiz ham davlatlarimiz o‘rtasida talash bo‘ldi. Hozir o‘tgan voqealarni xotirlashning, kim aybdor, kim sababchi, aslida, kim haq, deyishning umuman foydasi yo‘q. Bu voqealardan chiqarilishi zarur bo‘lgan yagona xulosa sifatida filolog olim Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Ota hech bir zamon biror o‘g‘ilga tegishli bo‘lmaydi. Ota o‘nta farzandi bo‘lsa, ularning barchasiga bir xil ota bo‘lib qolaveradi. Bu faqat mening otam deyish qanchalik aqlga sig‘mas ish bo‘lsa, xalqlarimizning umumiy moddiy-madaniy merosi, bobokalonlarimizni ham

faqat bizning xalqqa tegishli deyish noto‘g‘ri”, degan so‘zlarini keltirish o‘rinli. Bu falsafani teran anglagan, xalq dardi, o‘y-xayollariga quloq tutgan Prezidentimiz davlat rahbari bo‘lgach, xalqchil islohotlarni amalga oshirdi. Shulardan biri, albatta, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona, kuchli hamkorlik aloqalarini tiklash bo‘ldi. Davlatimiz rahbari bugungi tahlikali zamonda men degan yutqazadi, biz degan yutadi, deya birlashish, o‘zaro hamjihatlikda taraqqiyot etish davri kelganini bot-bot ta’kidladi. Quvonarlisi, bu tashabbus qo‘shni yurtlar tomonidan katta xursandchilik bilan qarshi olindi, xayrixohlik bilan qabul qilindi. Jumladan, 2018-yilda birgina Tojikiston bilan bog‘laydigan 8 ta avtomobil nazorat punkti faoliyati tiklandi. 20 yildan buyon ishlamayotgan G‘alaba — Amuzang — Xoshadi temir yo‘li liniyasi ishga tushdi. Shuningdek, 2021-yildan Toshkent — Dushanbe — Toshkent muntazam parvozlari, 2022-yildan Samarqand — Dushanbe, Panjikat — Samarqand xalqaro avtobus qatnovlari qayta yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, hududlar o‘rtasida 5 ta, jumladan, Toshkent — Xo‘jand yangi avtotransport liniyasi ochildi. O‘sha yildan Toshkent — Dushanbe yo‘lovchi poyezdi qatnay boshladi. Demak, hozir yurtidoshlarimiz Tojikistonga istalgan transportda, istalgan vaqtda borib kela oladi. Bunga 2018-yilda ikki davlat o‘rtasida viza rejimi bekor qilinishi imkon berdi. Qo‘shni Qirg‘iziston bilan esa bu yo‘nalishda yanada katta natijalarga erishilgan. 2009-yildan beri yopiq turgan “Mingtepa” va “Xonobod” kabi

KURSANDCHILIK, QUVONCH BARDAVOM BO‘LSIN!

— Mahallamizni qo‘shni davlat bilan birgina Kofanihon daryosi ajratib turadi. Nariqi tomon — Tojikiston. U tomonda ham minglab qarindosh-urug‘, do‘st-birodarlari yashab keladi. Yillar davomida uyi ko‘rinib, o‘zi bilan diydorlasholmas edik. Shukrki, diydor nasib etdi, — deydi shu mahallalik Fayzullo Mamatov. Surxondaryo viloyati chegara hududlaridagi transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash yo‘lida so‘nggi yillarda bir qator muhim ishlar qilindi. Bu jarayonda keyingi yillarda Termiz tumanidagi “Gulbahor” chegara o‘tkazish punkti ochilishi ayni vaqtda nafaqat ikki davlat fuqarolari, balki kengroq mintaqaviy hamkorlik uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida bojxona va chegara nazorati tizimi modernizatsiya qilindi, hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni elektronlashtirildi. Bu esa yo‘lovchilar, savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar uchun ham ayni muddao bo‘ldi. “Gulbahor” chegara o‘tkazish punkting ahamiyatini aniq raqamlarda ko‘rish mumkin. 2024-yil davomida bu yerdan 247 mingdan ziyod kishi chegarani kesib o‘tgan. Kunlik o‘rtacha harakat 677 kishini tashkil etgan. 2025-yilning yanvar-mart oylarida esa 60 mingga yaqin kishi ushbu punktdan foydalangan. Bu ham bir



“XALQIMIZDA MEHR KO‘ZDA, DEGAN IBORA BOR. USHBU ISLOHOTLAR XALQLARIMIZ JIPSLIGINI, O‘ZARO TOTUVLIK, DO‘STLIK ALOQALARINI YANADA KUCHAYTIRDI. BU ESA MAMLAKATLARIMIZ O‘RTASIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY HAMKORLIKNI HAM YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQDI.

2016-yildagiga nisbatan qariyb 6 barobar ko‘p. Ikki mamlakat o‘rtasida Strategik savdo-iqtisodiy sheriklik to‘g‘risida 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan dastur qabul qilingan. Yuqoridagi raqamlardan o‘zaro hamkorlik mamlakatlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishiga katta hissa qo‘shayotganini anglash mumkin. Iqtisodiy hamkorligimizdagi o‘shishda “katta sakrash” yuz bergani kelgusida bundan ham yuqori marallarni bemaol ko‘zlayverish mumkinligidan darak beradi. Kuni kecha ro‘y bergan tarixiy voqea — O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida uch mamlakatning davlat chegaralari tutash nuqtasi to‘g‘risidagi shartnoma imzolashini mamlakatlarimizning har tomonlarga keng ko‘lamli hamkorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Qad rostlagan Do‘stlik stelas esa abadiy do‘stligimiz nishonasi sifatida bugungi tarixiy voqealar uzoq yillar unutilmasligiga zamin yaratadi.

O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston chegaralarning tutash hududi to‘g‘risidagi shartnoma ilgariroq imzolangan edi. Endi Markaziy Osiyodagi chegaraviy munosabatlar butkul istiqbolli yechim topdi, deyshimiz mumkin. Ilgari o‘z muammolariga o‘ralashib qolgan davlatlarimiz — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikiston bir musth kabi jipslashib, faqat taraqqiyot sari dadil qadamlar bilan ildamaydi. Bu esa butun dunyoni o‘z nigohini mintaqamizga qaratishga, muhim xalqaro masalalarda biz bilan hisoblashishga majbur qiladi. Xalqaro imbarlarda davlatlarimiz ovozi butun bir mintaqani tamsil etib, yanada zalvorli, ahamiyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Dunyo allaqachon Markaziy Osiyoni katta bir kuch, ajralmas geosiyosiy hudud sifatida ko‘ra boshlagan. Bunga “Markaziy Osiyo plyus” sammitlari o‘tkazilayotgani ham yaqqol misol bo‘la oladi. Markaziy Osiyo davlatlari mana shunday birlik, o‘zaro hamkorlik orqali mintaqadagi muammolarni osonroq hal etadi. Taraqqiyot pillapoyalaridan jadal sur‘atlarda odimlaydi. Ularga esa kuni kecha imzolangan kelishuv va shartnomalar mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

vaqlar haftalab, oylab onda-sonda bir-ikki bor o‘tib-qaytgan chegara punkting ahamiyati, sharoiti, ikki xalqning bir-biriga intilishining ifodasi, deyish mumkin.

Mazkur chegara o‘tkazish punkti fuqarolar va tadbirkorlar uchun katta qulayliklar yaratishi bilan birga, ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik mustahkamlanishiga hissa qo‘shmoqda. Bu kabi tashabbuslar nafaqat bugungi, balki kelajakdagi taraqqiyot yo‘llarini belgilab berayotir.

Muzrabot tumanining Darband mahallasida tojik millatiga mansub 3000 dan ziyod yurtidoshimiz yashaydi. Ulardan biri Muzaffar Ramazonov Tojikistondagi oliy ta’lim muassasasini tamomlagandi. Ammo vaziyat taqozosi bilan bir necha yil ma’lumotini tasdiqlovchi hujjat — diplomini ololmasdan ovora bo‘lgan. Keyingi yillardagi davlatlar o‘rtasida aloqalar qayta tiklanishi tufayli uning bu muammosi tezda yechim topdi.

— Tojikistonda tahsil oldim. Oliy ma’lumotli bo‘ldim. Lekin diplomim bir necha yil chang bosib yotdi. Mana, endi maxsus imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tganlarning diplomlari tan olinadigan bo‘ldi. Bo‘lar ekan-ku, juda baxtliman, — deydi Muzaffar Ramazonov.

Muzrabotning Gulobod mahallasidagi tojikzabon hamyurtlarimiz ham o‘zbeklar bilan qardosh bo‘lib ketgan. Quda-anda, xeshu aqrabolar orasida har ikki millat vakillari bor. Gulobodliklar farzandlarining ta’lim olishi, turmush kechirishi va mehnat qilishi uchun yaratilgan sharoitlardan minnatdor.

Surxondaryo viloyatidagi 24 ta mahalla qo‘shni Tojikiston bilan chegaradosh. Mana shu mahallalardagi minglab surxondaryoliklarda qo‘shni davlatlar bilan aloqalar yanada yaxshilanishidan totli bir quvonish bor. Bunday totli his esa bardavom bo‘lsin!

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri